

BUTUNJAHON ANTIDOPING KODEKSI SANKSIYALARINING MUTANOSIBLIK ASOSIDA QO'LLANILISHIDA XALQARO SPORT ARBITRAJ SUDINING ROLI VA AHAMIYATI

Davronova Dilbar

*Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura bosqichi talabasi
davronovadilbar94@gmail.com*

ANNOTATSIYA

Maqolada Xalqaro sport arbitraj sudi faoliyatida proporsionallik prinsipini qo'llash masalasi yoritilgan, bu xalqaro huquqning inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish kabi umumiy prinsipidir. Proporsionallik tamoyilining vujudga kelishi, rivojlanishi, uning sport sohasidagi inson huquq va erkinliklarini himoya qilishdagi o'rni va ahamiyati bir qancha SAS qarorlari orqali tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *xalqaro sport huquqi, xalqaro va Yevropa huquqi tamoyillari, doping, proporsionallik prinsipi, Sport arbitraj sudi, sportchi.*

АННОТАЦИЯ

В статье освещается вопрос применения принципа пропорциональности в деятельности Международного спортивного арбитражного суда, который является таким общим принципом международного права, как защита прав и свобод личности. Анализируется несколько решений САС с точки зрения возникновения, развития принципа пропорциональности, защиты прав и свобод личности в ее спортивной сфере.

Ключевые слова: *международное спортивное право, принципы международного и европейского права, допинг, принцип пропорциональности, Спортивный арбитражный суд, спортсмен*

ABSTRACT

The article covers the question of applying the principle of proportionality in the activities of the International Court of Arbitration for sport, a general principle of international law such as the protection of individual rights and freedoms. A number of SAS decisions are analyzed in terms of the emergence, development of the principle of proportionality, the protection of the rights and freedoms of a person in his field of sports.

Keywords: *international sport law, principles of international and European law, doping, principle of proportionality, Court of Arbitration for Sport, athlete.*

I. Kirish

Xalqaro sport arbitraj sudi (bundan buyon matnda sud yoki SAS) sport nizolarini ko'rishda xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan tamoyillari va qonun qoidalariga tayanadi, ushbu tamoyil va qoidalar sudning har bir qarorida o'z aksini topadi.

Xalqaro huquqning asosiy tamoyillari Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ustavida (ushbu prinsiplarning to'liq ro'yxati mavjud emas), Xalqaro huquq tamoyillari to'g'risidagi Deklaratsiyada, Davlatlar o'rtasida do'stona munosabatlar va hamkorlik to'g'risida Birlashgan Millatlar tashkiloti, shuningdek Yevropada xavfsizlik va hamkorlik bo'yicha konferensiyaning yakuniy aktida (Xelsinki, 1-avgust 1975-yil) belgilangan. Ushbu maqolada SAS tomonidan inson huquqlari va asosiy erkinliklarini ta'minlashda proporsionallik tamoyilining ta'minlanishi borasida fikr yuritiladi. Yuqorida qayd etilgan tamoyil (inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish) BMT Ustavida asosiy maqsadi iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy yoki gumanitar xarakterdagi xalqaro muammolarni hal qilishda, irqi, jinsi, tili va dinidan qat'iy nazar hamma uchun inson huquqlari va asosiy erkinliklarga hurmatni targ'ib qilish va rag'batlantirishda xalqaro hamkorlikka erishish deb belgilangan.

Yevropada xavfsizlik va hamkorlik bo'yicha konferensiyaning yakuniy aktida davlatlar tomonidan bajarilishi kerak bo'lgan boshqa prinsiplar qatorida inson huquqlarini, shu jumladan fikr, vijdon, din va e'tiqod erkinligini hurmat qilish prinsipi barchaga kafolatlanadi deb belgilangan. Yevropa Ittifoqining normativ-huquqiy hujjatlarida xalqaro huquqning bir qator umume'tirof etilgan tamoyillari aks ettirilgan. Inson huquqlari va asosiy erkinliklari konsepsiyasiga to'xtaladigan bo'lsak, Yevropa Ittifoqi to'g'risidagi shartnomada proporsionallik tamoyili belgilanishi orqali ishlab chiqilgan. Ushbu tamoyilga muvofiq, davlat organlarining har qanday harakatlari va qarorlari ularning faoliyat maqsadlariga qat'iy muvofiq bo'lishi kerak va ular kimnidir javobgarlikka tortishda, ruxsat etilgan chegaradan oshmasligi kerak. Bu shuni anglatadiki, sanksiya yoki jazoning jiddiyligi jinoyatning og'irligiga mos kelishi kerak. Xalqaro sport qonunchiligiga bag'ishlangan xorijiy ilmiy adabiyotlarda mutanosiblik prinsipining asosiy tushunchalari yetarli darajada tasvirlangan. Yevropa qonunchiligida sudning nizolarni hal qilish tartib-qoidalariga nisbatan mutanosiblik prinsipini quyidagicha ta'riflash mumkin: "mutanosiblik prinsipi keng tan olingan va qabul qilingan. Bu maqsadga muvofiq va zarur bo'lgan talablardan tashqariga chiqishni hisobga olish kerak bo'lgan har qanday choralarni ko'rishni taqiqlaydi. Prinsipni qo'llash sanksiya qo'llanilayotgan shaxslarning manfaatlarini va u erishmoqchi bo'lgan kengroq ijtimoiy maqsadni muvozanatlashni o'z ichiga oladi.

II. Metodologiya

Tadqiqotning metodologik asosini umumiy mantiqiy usullar (tahlil va sintez, dialektik, umumlashtirish, analogiya, mavhumdan konkretga va konkretan mavhumba o'tish), empirik tadqiqot usullari (taqqoslash, guruhlariga taqsimlash) va

alohida ilmiy usullar (formal-yuridik, tarixiy, qiyosiy-huquqiy) hamda ilmiy bilishning boshqa usullaridan foydalanildi.

III. Natijalar

Xalqaro sport arbitraj sudining Butunjahon antidoping kodeksini proporsionallik prinsipi asosida qo'llashning huquqiy tabiati tahlil qilinadi. Natijada ushbu munosabatlarni huquqiy tartibga soluvchi, qonunchilikni takomillashtirishga yordam beradigan takliflar ishlab chiqiladi.

IV. Muhokama qismi

SAS muntazam ravishda proporsionallik prinsipini antidoping qoidabuzarliklari uchun qo'llanilgan jazoni kamaytirishda qo'llash mumkinmi yoki yo'qligi masalasini ko'rib chiqadi. Butunjahon antidoping kodeksida doping bilan bog'liq qoidabuzarliklar uchun qat'iy jazolarning qo'llanilishi qoidabuzarlikning tabiatiga nisbatan jazo tayinlashni qiyinlashtiradi. Shunga qaramay, SAS o'z qarorlarida ishning holatlari asosida ushbu tamoyilni qo'llab kelmoqda. Bir necha o'n yillar davomida mutanosiblik tamoyili sud qarorlarida izchil shakllanib kelmoqda.

SAS tomonidan antidoping qoidabuzarliklariga nisbatan proporsionallik tamoyili qo'llanilgan va sankiya muddati kamaytirilgan ishlarni tahlil qiladigan bo'lsak, 2005 yil iyul oyida sud tomonidan ko'rib chiqilgan Squizzato FINAga qarshi ishi SAS qarorlarida proporsionallik tamoyilini qo'llashda tub burilish yasagan qarorlardan biridir. 2004-yil 21- va 22 - avgust kunlari Germaniyada o'tkazilgan suzish bo'yicha Yevropa ochiq suv kubogi musobaqasida yosh italiyalik suzuvchi Squizzato ishtirok etdi. Undan olingan doping sinamadan taqiqlangan modda aniqlandi. Keyinchalik ma'lum bo'lishicha, sportchi tarkibida taqiqlangan modda borligini bilmay turib, teri kasalliklariga qarshi kurashish uchun ishlatgan dori vositasi orqali tanasiga taqiqlangan modda tushgan.

Sudda suzuvchining ta'kidlashicha, dori sportchining sport imkoniyatlarini oshirmagan va uning ishlashiga yordam bermagan. Suzuvchi suddan uni ayblovdan ozod qilishni yoki har qanday holatda ham Italiya suzish federatsiyasi tomonidan qo'llanilgan diskvalifikatsiya muddatini kamaytirishni so'ragan. Sud qarorining xulosa qismida mutanosiblik tamoyilining muhim elementlari ko'plab milliy va xalqaro sport federatsiyalarining qoidalar va qoidalari to'plamiga Butunjahon antidoping kodeksini qabul qilish yo'li bilan kiritilganligi, antidoping qoidabuzarligi sodir etgan sportchining aybi yoki beparvoligi aniqlangan taqdirda, faqatgina huquqdan mahrum qilish muddatini qisqartirish emas balki har bir ishning individual holatlari ko'rib chiqilishi belgilangan.

Sud qarorlarida sud jazoning og'irligi huquqbuzarliklarning jiddiyligiga mutanosib bo'lishi kerakligi sport huquqining keng e'tirof etilgan umumiy tamoyili ekanligini ta'kidlaydi. SAS mutanosiblik tamoyilining mavjudligi va muhimligini bir necha bor isbotlagan.

SAS qarorlari xulosasida sport federatsiyalari qoidalari Butunjahon antidoping kodeksidan kelib chiqqanligining o'zi ushbu qoidalarning mohiyatini o'zgartirmasligini, ushbu qoidalar har bir holat uchun mutanosiblik prinsipi kabi fundamental va umumiy huquqiy tamoyillarni (to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita) o'rnini bosa olmaydigan qoidalar ekanligi belgilangan. So'ngi o'n yil ichida sud tomonidan chiqarilgan qarorlarga murojaat qiladigan bo'lsak, sudning mutanosiblik prinsipini qo'llash bo'yicha pozitsiyasi o'zgarmaganligini ko'rishimiz mumkin. SAS sud amaliyotida mutanosiblik e'tirof etilgan prinsip bo'lib, sanksiya proporsionallik prinsipiga mos kelishi kerak, ya'ni noto'g'ri xatti-harakat va sanksiya o'rtasida oqilona muvozanat bo'lishi kerak. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, sanksiyaning og'irligi sodir etilgan huquqbuzarlikka mutanosib bo'lishi kerak. Sanksiyaning nomutanosibligini da'vo qiladigan har qanday tomon uning talablarini isbotlashni o'z zimmasiga oladi. Yuqorida aytilganlarga asoslanib, shuni ta'kidlashimiz mumkinki, yillar davomida sport arbitraj sudning pozitsiyasi o'zgarmadi va bundan tashqari har bir ishda alohida holatlarni baholash bo'yicha qarorlari doimiy ravishda takomillashtirilmoqda.

Xalqaro sport arbitraj sudi tomonidan Butunjahon antidoping kodeksi faqatgina kodeksda belgilangan yengillashtiruvchi holatlardagina mutanosiblik tamoyili asosida qo'llaniladi ya'ni kodeksning 10.4 va 10.5-moddalarida sportchining antidoping qoidabuzarligi sodir etishdagi aybi yoki beparvoligi isbotlangan taqdirda, shuning ishning alohida holatlarini inobatga olgan holda, istisno hollarda sud sportchiga nisbatan huquqdan mahrum qilish muddatini kamaytiradi. Faqat shu belgilangan hollardagina sportchi tomonidan sodir etilgan qoidabuzarlikka nisbatan mutanosiblik tamoyili asosida jazo choralari qo'llaniladi, biroq boshqa hollarda qat'iy javobgarlik prinsipi asosida sanksiyalar qo'llaniladi. Chunki doping qoidabuzarliklarini oldini olishda qat'iy sanksiyalar muhim rol o'ynaydi, shu sababli ham ba'zi manbalarda SAS tomonidan mutanosiblik prinsipi keng qo'llanilmasligi ya'ni faqatgina istisno hollarda Kodeksda belgilangan yengillashtiruvchi holatlardagina qo'llanilishi ta'kidlanadi.

Kodeksda belgilangan yengillashtiruvchi holatlar ya'ni 10.4 va 10.5-moddalar faqat sanksiyalar belgilashda qo'llaniladi, ular antidoping qoidalarining buzilishi sodir bo'lganligini aniqlashda qo'llanilmaydi. Ular faqat istisno holatlarda qo'llaniladi, masalan, sportchi ehtiyotkor bo'lishiga qaramasdan tarkibida taqiqlangan modda mavjud bo'lgan mahsulotni iste'mol qilgan va bu holatni sudda isbotlab bera olishi lozim.

Sudning mutanosiblik prinsipini amalda qo'llashiga misol keltirish orqali ko'rib chiqadigan bo'lsak, 2016-yilda sud rossiyalik tennischi Mariya Sharapovaning antidoping qoidabuzarligi bilan bog'liq ishini ko'rib chiqdi, sportchidan olingan doping sinamasining "A" namunasidan taqiqlangan modda meldoniy (meldonium - S4 (gormonlar va metabolik modulyatorlar) aniqlangan. Ishni ko'rish davomida sportchi

sudga ish holatlarini inobatga olib proporsionallik prinsipini qo'llash to'g'risida murojaat qildi. Sud shikoyatchining barcha sabablarini ko'rib chiqib, tegishli sanksiya muddati o'n besh (15) oyni tashkil etishini aniqladi hamda muhim aybi yo'qligi asosida sanksiyasini to'qqiz (9) oyga qisqartirdi.

V. Xulosa

Shuni ta'kidlashimiz mumkinki, xalqaro sport huquqi sohasida mutanosiblik tamoyilini qo'llash nizoning faktik asosini va shaxsning aybi darajasini tegishli baholash zarurati bilan bog'liq. Bu atbitrlarning ma'lum darajada subyektivligini anglatadi va muqarrar ravishda uning amalga oshirilishiga ta'sir qiladi. Biroq, pozitsiyasidan qat'i nazar va sudning ko'p yillik xulosalariga asoslanib, biz ishonch bilan aytishimiz mumkinki, sportchilarga nisbatan sanksiyalar qo'llashda asosiy masala xalqaro va Yevropa huquq tamoyillarini qo'llashdir.

VI. Foydalanilgan adabiyotlar

1. Butunjahon antidoping kodeksi. (elektron manba) https://www.wada-ama.org/sites/default/files/resources/files/2021_wada_code.pdf.
2. The Strict Liability Principles and the Human Rights of Athletes in Doping Cases ink.springer.com/book/9789067042260.
3. Arbitration CAS 2016/A/4643 Maria Sharapova v. International Tennis Federation (ITF), award of 30 September 2016; <https://jurisprudence.tas-cas.org/Shared%20Documents/4643.pdf>
4. Proportionality of sanctions under the WADA Code: CAS jurisprudence and the need for a strict approach. <https://eprints.qut.edu.au/218891/1/56521.pdf>.